

I SHO'BA

"O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA MOLIYA BOZORINING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNI ESG TAMOYILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

"O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA SOLIQ YUKINI PASAYTIRISH MASALASI

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu tezis "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida soliq yukini pasaytirish masalasini o'rgangan holda, uning zaruriyati, soliq yukini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, strategiyada belgilangan maqsadlar va soliq yukini pasaytirishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq yukini pasaytirish iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston – 2030 strategiyasi, soliq yuki, soliq siyosati, investitsiya muhiti, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy o'sish.

O'zbekiston Respublikasi o'zining yangi taraqqiyot bosqichida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va global raqobatbardoshlikni kuchaytirish kabi muhim vazifalarni o'z oldiga qo'yemoqda. Bu maqsadlarga erishishda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi muhim ahamiyat kasb etib, unda iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Soliq yuki, tadbirkorlik faoliyatining rentabelligiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida, investitsiya faolligini susaytirish, "yashirin iqtisodiyot"ning kengayishiga olib kelishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida soliq yukini pasaytirish orqali iqtisodiyotni rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq yukini pasaytirish bo'yicha bir qator muhim islohotlar amalga oshirilgan bo'lsada, soliq tizimini yanada takomillashtirish va soliq yukini pasaytirish bo'yicha ishlar davom ettirilishi zarur deb hisoblaymiz. Ushbu tadqiqotimizning maqsadi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida soliq yukini pasaytirish masalasini kompleks tahlil qilish, bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini ko'rsatishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi mamlakatimizning kelgusi yetti yildagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir. Albatta, bu maqsadga erishishning muhim vositalaridan biri soliq yukini pasaytirish hisoblanadi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida soliq yukini yanada pasaytirish va soliq tizimini iqtisodiy o'sishga moslashtirish bo'yicha quyidagi maqsadlar belgilangan:

- Soliq tizimini soddallashtirish va shaffoflashtirish: Soliq hisobotlarini soddallashtirish, soliq qonunchiliginani aniqlashtirish va soliq ma'muriyatichiligini takomillashtirish;
- Soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish: Soliq stavkalarini optimallashtirish va soliq bazasini kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish;
- Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: Kichik va o'rta biznes uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish va ularning soliq yukini kamaytirish;
- "Yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurash: Soliq to'lashdan qochish holatlarining oldini olish va "yashirin iqtisodiyot"ni legallashtirish.

Soliq yukini nazorat qilmaslik turli iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin, xususan yuqori soliq yukining salbiy oqibatlari sifatida investitsiya faolligining susayishi, tadbirkorlik faoliyatining pasayishi, "Yashirin iqtisodiyot"ning kengayishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishi kabilarni e'tirof etish mumkin. Ushbularni chuqurroq izohlab o'tadigan bo'lsak, yuqori soliqlar tadbirkorlikka investitsiya kiritishga bo'lgan qiziqishni kamaytirsa, buning natijasi iqtisodiyotda kapital qo'yilmalari hajmining va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, soliq stavkalarining o'sishi tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish uchun to'siq bo'lib, ushbu vaziyat xarajatlarni oshiradi hamda foyda olishni qiyinlashtiradi. Oqibatda esa tadbirkorlar safi kamayib mavjud ish o'rnlari qisqarish holati yuz bewradi.

Yuqordagilar bilan bir qatorda yuqori soliqlar tadbirkorlarni soliq to'lashdan qochishga undaydi, bu esa "yashirin iqtisodiyot"ning rivojlanishiga olib kelib, davlat byudjetiga soliq tushumlari hajmining kamayishiga va iqtisodiyotda shaffoflikning pasayishiga zamin yaratadi. Qolaversa, soliq to'lovlarining ortishi ish beruvchilarning xarajatlarini oshirish barobarida ish haqi miqdorini cheklashiga, maxsulot va xizmatlar tannarxining oshishiga olib kelib, inflyatsiya sur'atlarining jadallahuviga imkon tug'diradi.

Shu sababli ham "O'zbekiston - 2030" strategiyasida soliq yukini pasaytirish orqali iqtisodiyotni rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsad qilib qo'yilgani bezizga emas.

Ayni kunlarda mamlakatimizda soliq yukini pasaytirish bo'yicha bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, soliq siyosatida QQS,

foyda solig'i stavkasini pasaytirish, ijtimoiy to'lovni kamaytirish, soddalashtirilgan soliq tizimi va soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish kabi ishlar amalga oshirilmoqdaki, bu tadbirkorlar uchun soliq yukini sezilarli darajada kamaytirdi va ularning aylanma mablag'larini oshirdi. Shuningdek, soliq to'lovchilar uchun soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarni soddalashtirish va shaffoflashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilayotgani ham soliq ma'muriyatichilidagi takomillashuvlardan dalolat beradi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida soliq yukini pasaytirish iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim omilidir. So'nggi yillarda bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, soliq tizimini yanada takomillashtirish va soliq yukini pasaytirish bo'yicha ishlar davom ettirilishi zarur deb hisoblaymiz. Zero, soliq yukini pasaytirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investitsiya faolligini oshirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish mumkin.

Bu borada ushbu takliflarni taqdim etishimiz mumkin:

1. Soliq stavkalarini optimallashtirish, jumladan, QQS va foyda solig'i stavkasini yanada kamaytirish hamda kam daromadli jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JShODS) stavkalarini optimallashtirish;

2. "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish, yer va mulk soliqlarini hisoblashda bozor narxlariga yaqin bo'lgan kadastr qiymatidan foydalanish hamda soliq imtiyozlarini optimallashtirish chora-tadbirlari yordamida soliq bazasini kengaytirish;

3. Soliq hisobotlarini soddalashtirish, elektron soliq xizmatlarini kengaytirish, soliq nazoratini kuchaytirish orqali soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish;

4. Kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar ajratish, soliq ta'tillari berish asosida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash;

5. Soliq qonunchiliga tez-tez o'zgartirishlar kiritmaslik, soliq siyosatini ochiq va shaffof olib boorish kabilar zamirida soliq siyosatining barqarorligini ta'minlash.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. 2025-yil uchun Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1011сон), "Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-fevraldagagi "Soliq qonunchilagini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5214-sonli farmoyishi

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagagi "Imtiyozlar va preferensiylar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori PQ-3756-sonli qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida»gi PF-5468-sonli farmoni.

5. Sh.Mirziyoyev. Biz buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 425 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. –104 b.

7. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.-311c.

8. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. 2-е изд.,перераб. И доп. М.: ИНФРА-М, 2002, 570 с.9.

9. Toshmatov Sh.A. Korxonalarini rivojlantirishda soliqlarning roli/ Monografiya.-T.: Fan va texnologiya, 2008.-204 b.

THE NEED FOR REGISTERING THE POPULATION IN A TEST METHOD

*Begalova Durdona Baxodirovna,
1st year doctoral student at the Institute of
Personnel Retraining and Statistical Research,
Assistant of the Department of "Statistics" of TSUE*

Annotation. This article describes the necessity of a pilot census, the content, essence and goals of the pilot census process, the recommendations and practices of foreign countries of conducting of this process, the stages, organizational structure and processes of the preparation and conduct of the pilot census. It also provides detailed information on what to look for when conducting a pilot population census, as well as what measures will be taken in this process.

Keywords: population census, demographics, population census program, population census forms.

Before starting each task, the performer thoroughly studies the multifactorial impacts on this task, based on the task being performed. In turn, the population census also requires thorough preparation, taking into account the large-scale, time-consuming, and costly nature of the event.

Trial population registration. Trial population registration is a practical measure that is carried out once every ten years, which is considered the main stage of the population registration and allows testing the organizational and methodological principles of the population registration, software and hardware support, and technological processes of data processing. The population registration is carried out in three stages, and the first of these stages, the preparatory stage, is the trial population registration. Therefore, this stage is very important for the population registration.